

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14380222>

**Ilyasova Munisa Mirvaliyevna**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Jamoat salomatligi va menejment kafedras, PhD*

**Muxitdinov Xurullo Akbaraliyevich**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Biotibbiyot muhandisligi,  
informatika va biofizika kafedras*

**Sodiqov Mirazim Mirsaid o'g'li**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi*

**Annotatsiya;** *Ushbu maqolada Tibbiyot turizmini rivojlantirishda xalqaro klinikalarning ahamiyati juda katta bo'lib Ular bu sohada muhim rol o'ynab, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga va aholining sog'lig'ini yaxshilashga hissa qo'shadilar. Xalqaro klinikalarning ahamiyatlari to'g'risida so'z yuritiladi,*

**Kalit so'z;** *Xalqaro, rivojlanish, tibbiyot, klinika, tizim, iqtisodiy, mamlakat, ahamiyat, malakali xodimlar, havfsizlik, texnologiya, shifokor, turizm, sifat, samaradorlik.*

O'zbekiston Respublikasida tibbiyot turizmi sohasiga alohida strategik ahamiyat berilmoqda. Prezidentning 2018 yil 7- dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks choratadbirlar to'g'risida"gi 5590 - qaroriga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi "2019-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida tibbiyot turizmini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi loyihasini ishlab chiqdi. O'zbekistonda turizm va tibbiyot sohalarida o'tkazilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, bu borada chet ellik fuqarolarning mamlakatimizga kirib kelishini ko'paytirish maqsadida "Medtravel Global System" NNT tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasidagi sog'liqni saqlash tashkilotlari tomonidan berilgan taklifnomaga asosan chet el fuqarolari uchun 3 oy muddatga yangi viza "Medical Visa" joriy etildi. O'zbekiston Respublikasida ham dam olish va sog'liqni tiklash maskanlari mavjud.<sup>8</sup>

Turizm sohasining hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan ayni bir davrida jahonda uning turli xil shakllari paydo bo'lmoqda va rivojlanib bormoqda. Jumladan tibbiy turizm dunyo bo'ylab jadal rivojlanmoqda va ko'plab mamlakatlar iqtisodiyoti uchun muhim turizm turi sifatida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan bir qatorda O'zbekistonda ham turizmning ushbu turiga e'tibor kuchaytirilib boshlangan. Xorijiy sayyohlarning ma'lum bir qismi mamlakatimizga aynan

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 23.09.2024 yildagi PQ-335-son

sog'lig'ini tiklash hamda rekreatsiya maqsadida tashrif buyurishni allaqachon boshlashgan. Bu esa mamlakatimizning iqtisodiyotida sezilarli o'sishni keltirib chiqarmoqda.

Tibbiy turizm — bemorlar malakali tibbiy xizmatlar, jarrohlik amaliyotlari yoki diagnostik xizmatlarni olish uchun boshqa mamlakatlarga sayohat qiladigan soha hisoblanadi. Bu sohaga talab oshib borishi bilan u turli mamlakatlarda yangi xizmatlarni joriy qilish, sifatni oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Tibbiy turizm global bozorda yuqori darajada o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, davlatlar uchun iqtisodiy jihatdan jozibador sohalardan biridir.<sup>9</sup>

Xalqaro klinikalar odatda yuqori malakali tibbiyot xodimlariga, zamonaviy texnologiyalarga va eng yangi tibbiy usullarga ega bo'ladi. Bu esa bemorlarga yuqori sifatli va samarali tibbiy yordam olish imkonini beradi. Ayniqsa, murakkab jarrohlik amaliyotlari, diagnostika tadqiqotlari va maxsus davolash usullarida ularning ustunligi yaqqol ko'rinadi.

Nufuzli va taniqli xalqaro klinikalar mamlakatga tibbiyot turizmini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bemorlar yuqori sifatli tibbiy xizmat olish uchun boshqa mamlakatlardan kelishadi, bu esa mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga va yangi ish o'rinlari yaratishga yordam beradi. Xalqaro klinikalar mahalliy tibbiyot muassasalariga zamonaviy texnologiyalar va tibbiy bilimlarni o'tkazishda muhim rol o'ynaydi. Ular mahalliy shifokorlarning malakasini oshirishda ham ishtirok etishlari mumkin. Bu esa mahalliy sog'liqni saqlash tizimining sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Innovatsiyalarni joriy etish: Xalqaro klinikalar yangi tibbiy usullar va innovatsiyalarni joriy etishda peshqadam hisoblanadi. Ularning tajribasi va bilimlari mahalliy tibbiyot muassasalariga yangi texnologiyalarni qo'llash va sog'liqni saqlash xizmatlarini takomillashtirishga yordam beradi.

Yuqori sifatli tibbiyot turizmi mamlakatning xalqaro miqyosdagi obro'sini oshiradi. Bu esa boshqa sohalardagi investitsiyalarni jalb qilishga va mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirishga yordam beradi klinikalarning mavjudligi mahalliy klinikalarga raqobatbardosh bo'lishga undaydi. Bu esa ularning xizmatlari sifatini va samaradorligini oshirishga, yangi texnologiyalarni joriy etishga va bemorlarga yanada yaxshi xizmat ko'rsatishga majbur qiladi.

Ammo, xalqaro klinikalarni jalb qilishda ba'zi muammolar ham mavjud bo'lishi mumkin, masalan, qonun hujjatlari, infratuzilma, malakali kadrlarning yetishmasligi va boshqalar. Shuning uchun tibbiyot turizmini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ushbu muammolarni hal qilish va qulay investitsiya muhitini yaratish muhimdir.

---

<sup>9</sup> 1.Samandarov Q.A. Turizm bozorida tibbiy turizmning tutgan o'rni va o'zbekistonda sohani rivojlantirish uchun xorij tajribalarini qo'llash. Science and innovation international scientific journal

**ADABIYOTLAR:**

1. Yusupov Abbosxon Aliyevich. (2023). METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF USING HUMAN RESOURCES IN THE ACTIVITY OF SMALL BUSINESS SUBJECTS. Intent Research Scientific Journal, 2(3), 182–187. Retrieved from <https://intentresearch.org/index.php/irsj/article/view/67>

2. Umarov, O. (2023). MADANIY MEROS TURIZMI: ASOSIY TENDENSIYALAR, RIVOJLANISH VA MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON VA TURKIYA MISOLIDA). QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 8, 78-80. 3. Yuldasheva Nilufarxon A'zamjon qizi, Umarov Azizjon Azamjon o'g'li, & Abdullayev Axrorjon Axadjon o'g'li. (2023). SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 73–75. <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.254>

4. Turanboyev, B., & Musabekov, S. (2023). Digital Transformation of Tax Systems. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(11-12).

5. Mamurjonovich, U. T. (2022). WORLD ECONOMY AND INTERNATIONAL RELATIONS. ФГБОУ ВО «КАБАРДИНО-БАЛКАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМ. ХМ БЕРБЕКОВА». КОЛЛЕДЖ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЭКОНОМИКИ (РОССИЯ) ИСЛАМСКИЙ УНИВЕРСИТЕТСКИЙ КОЛЛЕДЖ ТАЗКИЯ, 142.

6. Mamurjonovich, U. T. (2023). JAHON IQTISODIYOTIDA YANGI INDUSTRIAL DAVLATLARNING TUTGAN O'RNI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 344-345.